Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sirojiddinova Shahrizoda Davronovna
"Ipak yo‘li" Xalqaro turizm va madaniy meros universiteti talabasi
E-mail: sirojiddinova2212@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada barqaror turizmni rivojlantirishda strategik menejmentning institutsional asoslarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Turizm sohasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishga ta'siri tahlil qilinib, barqaror turizmni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, turizmni rivojlantirishda davlat boshqaruvi organlari, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyatlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar*:* barqaror turizm, strategik menejment, institutsional muhit, turizm siyosati, turizm destinatsiyasi, raqobatbardoshlik, Smart Tourism.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ УСТОЙЧИВОГО ТУРИЗМА

Аннотация. В статье исследованы вопросы совершенствования институциональных основ стратегического менеджмента в развитии устойчивого туризма. Проанализировано влияние туристической отрасли на экономическое, социальное и экологическое развитие, а также изучены современные подходы к управлению устойчивым туризмом. Кроме того, разработаны предложения по усилению механизмов взаимодействия между органами государственного управления, частным сектором и местными сообществами в процессе развития туризма.

Ключевые слова: устойчивый туризм, стратегический менеджмент, институциональная среда, туристическая политика, туристская дестинация, конкурентоспособность, Smart Tourism.

IMPROVEMENT OF THE INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF STRATEGIC MANAGEMENT FOR SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT

Abstract. This article examines the issues of improving the institutional foundations of strategic management in the development of sustainable tourism. The impact of the tourism sector on economic, social, and environmental development is analyzed, and modern approaches to sustainable tourism management are explored. Furthermore, proposals have been developed to strengthen cooperation mechanisms among public authorities, the private sector, and local communities in promoting tourism development.

Keywords: sustainable tourism, strategic management, institutional environment, tourism policy, tourism destination, competitiveness, Smart Tourism.

Kirish. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizmning iqtisodiy o‘sish, aholi bandligini ta'minlash, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda madaniy almashinuvni rivojlantirishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, turizm faoliyatining atrof-muhitga ta'siri, tabiiy resurslardan foydalanish

darajasi va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish zarurati barqaror turizm konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi.

Barqaror turizm iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan rivojlanish modelidir. Mazkur modelning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa, avvalo, samarali strategik boshqaruv va rivojlangan institutsional muhit mavjudligiga bog‘liqdir.

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar. Barqaror turizmni rivojlantirish masalalari zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalishning nazariy asoslari barqaror rivojlanish konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot nazariyasi hamda strategik menejment yondashuvlariga tayanadi. Barqaror rivojlanish g‘oyasining shakllanishida D.Meadows, H.Daly va J.Elkington kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular iqtisodiy rivojlanish, ekologik muvozanat va ijtimoiy adolatning o‘zaro uyg‘unligini ta'minlash zarurligini asoslab berganlar. R.Butler tomonidan ishlab chiqilgan turistik destinatsiyalar hayotiy sikli nazariyasi esa turizm hududlarining rivojlanish bosqichlarini aniqlash va ularni samarali boshqarish imkonini yaratgan. Strategik menejment nazariyasining shakllanishida I.Ansoff, M.Porter va H.Mintzberglarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Ularning fikricha, tashkilot yoki hududning uzoq muddatli raqobatbardoshligi mavjud resurslardan samarali foydalanish, tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashish va strategik ustunliklarni shakllantirish bilan belgilanadi. Mazkur yondashuvlar turizm sohasida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham turizm iqtisodiyoti va uning institutsional rivojlanish masalalari bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, iqtisodchi olim Q.X. Abdurahmonov xizmatlar sohasi va inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini tahlil qilgan hamda xizmatlar sektorini rivojlantirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlagan. Olimning fikricha, turizm xizmatlari sifatini oshirish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi. S.S. G‘ulomov o‘z ilmiy izlanishlarida raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanishning xizmatlar sohasi taraqqiyotiga ta'sirini asoslab bergan. Uning tadqiqotlarida turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirish hamda turistlar oqimini ko‘paytirishning muhim omili sifatida baholanadi.

A.V. Vahobov iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xizmatlar sohasini rivojlantirishning institutsional omillariga alohida e'tibor qaratgan. Olimning ilmiy qarashlariga ko‘ra, davlat tomonidan yaratiladigan qulay institutsional muhit investitsiyalar oqimini ko‘paytiradi va yangi xizmat turlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Turizm sohasiga oid tadqiqotlarda Sh.Sh. Shodmonov va U.V. G‘afurovlarning iqtisodiy rivojlanish, bozor munosabatlari hamda hududiy boshqaruv mexanizmlariga oid ilmiy qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. Ularning ishlanmalarida iqtisodiy tizimning samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan institutsional mexanizmlarning takomillashganlik darajasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda barqaror turizmni rivojlantirishda strategik menejmentning institutsional asoslarini takomillashtirish masalalarini o‘rganishda tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, SWOT tahlil, PESTLE tahlil hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini barqaror rivojlanish nazariyasi, institutsional iqtisodiyot nazariyasi va strategik menejment konsepsiyalari tashkil etdi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ilmiy adabiyotlar hamda turizm rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Turizmni barqaror rivojlantirish jarayoni ko‘plab manfaatdor tomonlar faoliyatining uyg‘unlashuvini talab qilganligi sababli tadqiqotda manfaatdor tomonlar (stakeholders) nazariyasidan ham foydalanildi.

Tadqiqot tahlil va natijalari. So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Turizm infratuzilmasini kengaytirish, yangi

turistik marshrutlarni yaratish, tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlash hamda xalqaro turizm bozorida mamlakat imijini mustahkamlashga qaratilgan qator dasturlar qabul qilindi.

Biroq olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizmni rivojlantirishda quyidagi institutsional muammolar saqlanib qolmoqda:

- turizm subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish darajasining yetarli emasligi;
- hududiy boshqaruv mexanizmlarining nomukammalligi;
- davlat va xususiy sektor hamkorligining cheklanganligi;
- mahalliy aholi manfaatlarining turizm loyihalarida yetarli hisobga olinmasligi;
- ekologik monitoring tizimining rivojlanmaganligi;
- turizmni strategik rejalashtirish tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi.

Mazkur muammolar turizmning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Shu boisdan barqaror turizmni rivojlantirishning institutsional-strategik modelini ishlab chiqib, taklif etish maqsadga muvofiq deb topdik. Mazkur model barqaror turizmni rivojlantirishning asosiy institutsional va boshqaruv elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Modelning birinchi bosqichida davlat boshqaruvi organlari tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza, strategiyalar va dasturlar ishlab chiqiladi. Ushbu jarayon strategik rejalashtirish tizimi orqali amalga oshirilib, turizm rivojlanishining uzoq muddatli maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi. Keyingi bosqichda samarali institutsional muhit shakllantiriladi.

Barqaror turizmni rivojlantirishning institutsional-strategik modeli[1].

Institutsional muhit tarkibiga davlat boshqaruvi institutlari, turizm tashkilotlari, moliyaviy



institutlar, tadbirkorlik subyektlari va jamoatchilik tashkilotlari kiradi. Mazkur institutlarning samarali faoliyati turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Modelning navbatdagi bosqichi mahalliy hamjamiyatlar va biznes subyektlari hamkorligini rivojlantirish bilan bog‘liq. Ushbu hamkorlik turizm

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xizmatlari sifatini oshirish, yangi turistik mahsulotlarni yaratish hamda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Turizm xizmatlari sifatining oshishi turistlar qoniqish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turistlarning xizmatlardan mamnunligi destinatsiyaning jozibadorligini kuchaytiradi, takroriy tashriflar sonini oshiradi va hududning turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Natijada hududiy raqobatbardoshlikning ortishi iqtisodiy o'sish, aholi bandligi, mahalliy daromadlarning ko'payishi, ekologik muvozanatning saqlanishi va ijtimoiy farovonlikning yuksalishiga xizmat qiladi. Shu tariqa modelning yakuniy natijasi sifatida barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish ta'minlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hududlar kesimida strategik boshqaruvning institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- turizm destinatsiyalarini boshqarish bo'yicha hududiy boshqaruv markazlarini tashkil etish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish;
- mahalliy hamjamiyatlarning turizm loyihalaridagi ishtirokini kengaytirish;
- turizm sohasida raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish;
- barqaror turizm ko'rsatkichlari asosida monitoring tizimini yaratish.

Taklif etilayotgan mexanizm turizm sohasida manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, barqaror turizmni rivojlantirishda strategik menejmentning institutsional asoslari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turizm sohasida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, manfaatdor tomonlar hamkorligini rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning yangi bosqichida strategik menejmentning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat turizm xizmatlari sifatini oshirish, balki hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. United Nations World Tourism Organization. Tourism for Sustainable Development Goals. Madrid, 2024.
4. G'ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 412 b.
5. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 728 b.
6. Ansoff I. Strategic Management. – New York: Palgrave Macmillan, 2007.